

TARBIYACHINING PEDAGOGIK MAXORATINI OSHIRISHDAGI ASOS VA OMILLAR

Abduvosilova Gulnozaxon

7-DMTT tarbiyachisi

ANNOTATSIYA

Maqola maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarining pedagogik maxoratini shakillantirish masalalariga qaratilgan. Unda bugungi kun tarbiyachisiga qo'yilayotgan talab va vazifalar xamda ularni ijrosini ta'minlash omillari hamda tarbiyachi mahoratining oshirilishidagi vositalar haqida fikrlar xavola etilgan.

Kalit so'zlar: maxorat, "hayot davomida o'qish", nutq malakasi, nutq texnikasi, mimik va pantomimik, hissiy psixik, muoharat.

АННОТАЦИЯ

Статья посвящена вопросам формирования педагогического мастерства педагогов организаций дошкольного образования, содержит представления о запросах и задачах современных воспитателей, а также факторах обеспечения их реализации, а также средствах повышения мастерство воспитателей.

Ключевые слова: умение, "обучение на протяжении всей жизни", речевые навыки, техника речи, пантомима и пантомима, эмоциональная психика, общение.

ABSTRACT

The article is focused on the issues of shaping the pedagogical skills of teachers of preschool education organizations. It contains ideas about the demands and tasks of today's educators, as well as the factors of ensuring their implementation, as well as the means of increasing the skills of educators.

Key words: skill, "lifelong learning", speech skills, speech technique, mime and pantomime, emotional psyche, communication.

Mamlakatimizning Yangi O'zbekistonni yaratish va rivojlantirish yo'lidagi shaxdam qadamlaridan ko'rinadiki, buyuk ma'naviyatimizni yanada yuksaltirish, milliy ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, uning milliy zaminini mustahkamlash, zamon talablari bilan uyg'unlashtirish asosida jahon andozalari va ko'nikmalari darajasiga chiqarish maqsadida ta'lim tizimida ulkan bunyodkorlik ishlari olib borilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 16 dekabrda qabul

qilingan “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonunda maktabgacha ta’lim sohasida olib borilayotgan islohotlarda tarbiyachilarning mehnati naqadar yuksakligi, ular oldida barkamol avlodni tarbiyalashdek sharaflil va mas’uliyatli vazifa turganligi ta’kidlanadi. “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonunning 3-moddasida maktabgacha ta’lim va tarbiya – bolalarga ta’lim va tarbiya berishga, ularni intellektual, ma’naviy-axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek, bolalarni umumiy o‘rta ta’limga tayyorlashga qaratilgan uzluksiz ta’lim turi ekanligi, 4-moddada esa maktabgacha ta’lim va tarbiyaning:

- har bir bola uchun maktabgacha ta’lim va tarbiya olish imkoniyatining mavjudligi;

- har bir bolaning iste’dodi nishonalarini, ishtiyoqlari va qobiliyatlarini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar tengligi;

- maktabgacha yoshdagi bolalarga ta’lim, tarbiya berish va ularni sog‘lomlashtirishning, oila hamda maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyaviy ta’sirining birligi;

- maktabgacha yoshdagi bolalarga ta’lim va tarbiya berish uyg‘unligi;

- bolaning shaxsini rivojlantirishga yo‘naltirilgan shaxsiy yondashuv;

- maktabgacha va umumiy o‘rta ta’limning izchilligi hamda uzluksizligi;

- ta’lim va tarbiyaning demokratik hamda dunyoviy xususiyatga egaligi;

- ta’lim-tarbiya jarayonining shaffofligi va ochiqligi;

- maktabgacha ta’lim va tarbiya mazmuni, darajasi hamda hajmining maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanish xususiyatlariga hamda sog‘lig‘i holatiga muvofiqligi kabi asosiy printsiplari belgilab berilgan

Ushbu printsiplar zamirida tarbiyachilar pedagogik faoliyatining asosiy mohiyati mujassamlangan bo‘lib, uni hayotga tatbiq etish tarbiyachilar zimmasiga yuklatilgan. Tarbiyachi kelajak avlod sifatini ta’minlovchi asosiy javobgar shaxs ekan, uning pedagogik mahorati ham hozirgi zamon talablari darajasida, jahon andozalariga mos ravishda shakllanishi kerak. So‘ngi yillarda tarbiyachining kasbiy mahoratini oshirishga jiddiy e’tibor qaratilgan. Jumladan, – pedagoglar malakasini oshirish, ularning mashaqqatli mehnatini rag‘batlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ma’lumki, tarbiyachi hozirgi vaqtda har 5 yilda malaka oshiradi. Bundan buèn ularning “hayot davomida o‘qish” tamoyili asosida o‘z malakasini uzluksiz oshirib borishi yo‘lga qo‘yilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Pedagogik mahorat – yuksak pedagogik tafakkur, ta’lim-tarbiya jarayoniga ongli, ijodiy yondashuv, metodik bilimlarni samarali qo‘llay olish qobiliyati bo‘lib, u doimiy ravishda pedagogik bilimlarni oshirib borish, o‘tmish qadriyatlarini, O‘rta Osiyo mutafakkirlari ijodiy merosida yoritilgan murabbiylarni tayyorlash to‘g‘risidagi ma’lumotlar hamda zamonaviy axborot texnologiyalari, ilg‘or xorijiy davlatlarning

tarbiyachilar tayyorlash texnologiyalarini nazariy jihatdan o'rganish jarayonida tarkib topadi. Yosh tarbiyachilarning, shuningdek, ta'lim muassasasida bir necha yillik mehnat stajiga ega bo'lgan tarbiyachilarning pedagogik mahoratga ega bo'lishlari o'zlarini kasbiy jihatdan takomillashtirib borish yo'lida bir qator shartlarga amal qilishi hisobiga rivojlanib boradi. Ularni quyidagi vositalar asosida rivojlantirish mumkin, ya'ni mustaqil o'qib-o'rganish, tajribali ustoz tarbiyachilar faoliyatini o'rganish, tarbiyachi xodimlarni uzluksiz kasbiy rivojlantirilishlarini o'z vaqtida xis etish, doimiy ravishda ilmiy anjumanlarda faol ishtirok etish, respublika hamda rivojlangan xorijiy mamlakatlarning yetakchi ta'lim muassasalarida o'z tajribalarini oshirish, kasbi bo'yicha eng so'nggi ma'lumotlarni o'rganish.

Pedagogik mahoratga ega bo'lish ta'lim-tarbiya samaradorligini ta'minlash garovi bo'libgina qolmay, ayni vaqtda tarbiyachining jamoada, ijtimoiy muhitda obro'-e'tiborini oshiradi, tarbiyachilar orasida unga nisbatan hurmat yuzaga keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim-tarbiya to'g'risida"gi (O'RQ-595) Qonuni. Toshkent. 2019 yil. 16 dekabr.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning standartlarini tasdiqlash to'g'risidagi" 2020 yil 22 dekabrda 802- sonli qarori.
3. "Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari". T.: 2018
4. Ishmuxamedov R.J., Yuldashev M. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. – T.: "Nihol" nashriyoti, 2013, 2016